

GLOBAL IQLIM O'ZGARISHINING AGROLANDSHAFTLARGA
TA'SIRI VA ANTROPOGEN OMIL

Xasanov Primjon Ashurovish

*Samarqand davlat universiteti,
O'zbekiston*

Абстрактный. В ходе археологических исследований выяснилось, что в древности человек занимался земледельческой деятельностью почти семь тысяч лет назад, а в нашей стране это уходит корнями в пятитысячелетнюю историю. В настоящее время в связи с глобальной климатической ситуацией отрасли сельского хозяйства претерпевают ряд изменений. Очень важны вопросы рационального использования природных ресурсов.

Ключевые слова. агроландшафт, изменения климата, сельское хозяйство, измененные ландшафты, окружающая среда, антропогенные ландшафты.

Abstract. During the archaeological researches, it was found out that in ancient times man was engaged in agricultural activities almost seven thousand years ago, and in our country it goes back to five thousand years of history. Currently, due to the global climate situation, agricultural sectors are undergoing a number of changes. The issues of rational use of natural resources are very important.

Key words. agrolandscape, climate changes, agriculture, modified landscapes, environment, anthropogenic landscapes.

Hozirgi kunda insoniyatning globallashuv jarayoni hisobiga tabiiy landshaftlarning maydoni qisqarib, modifikatsion o'zgarishlarga uchrab, yoki butkul yangi ko'rinishga keldi. Landshaftlarning kichik bir qismini o'zgarishga uchrashi landshaft qobig'ining ham ma'lum miqdorda o'zgarishiga turtki bo'lmoqda. Ushbu holatda esa iqlim o'zgarishlarining ham roli ortib boryapti. Yer yuzining katta qismi iqlimiy tafovutlar hisobiga "yangilangan" iqlim vaziyatiga duchor bo'lmoqda. Agrolandshaftlarda – tabiiy resurslar shakllanadi va resurslar qayta tiklanishi hamda genofondga ega tabiiy sistemadir. Insonning hayoti va faoliyati kechadigan muhit, idrok qilish manbaidir. Yer yuzida inson paydo bo'lganidan buyon tabiatga ta'sir ko'rsatgan holda, muayyan yo'nalishda o'zgartiradi va har hil landshaftlar ko'rinishi yuzaga keldi. Biroq hozirgi kunda iqlimiy omillar o'zgarishi inson xo'jalik faoliyatiga ta'sir ortib bormoqda. Qishloq xo'jaligi landshaftlarning o'zgarish darajasi ko'rsatkichi antropogen ta'sirning katta-kichikligi, ularning tabiiy xususiyatlari, morfologik shakllari bilan birga iqlim o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda iqlim o'zgarishi antropogen omillar sababli yuzaga keldi deyish biroz noto'g'ri bo'ladi. Chunki, iqlim yer rivojlanish tarixi davomida ham bir necha bor o'zgarishga uchraganini olimlar aniqlashgan. Ammo ayni damda iqlimiy jarayonlarning hosil bo'lishida insonning roli kattadir. Aholi sonining ko'payishi va ishlab chiqarish texnikalarining takomillashishi sababli uning roli ortib boradi. Dastlab rus olimlaridan V.V.Dokucheyev, A.I.Voyeykovlar ilmiy izlanishlarida inson faoliyati ta'sirida tabiiy muhitning o'zgarishi haqida fikr yuritganlar [8]. V.I.Vernadskiy

insonning qudratli geologik kuchga aylanganligini ta'kidlaganda ham adashmagan edi. Inson tabiiy muhitni qanchalik o'zgartirsa albatta tabiat ham o'z javobini beradi. A.G.Isachenko antropogen ta'sir sababli geotizimlarning qay darajada o'zgarganligini asos qilib oldi va barcha antropogen landshaftlarni 4 guruhga ajratgan: 1) Shartli o'zgartirilmagan, 2) Kuchsiz o'zgartirilgan landshaftlar, 3) Kuchli o'zgartirilgan landshaftlar, 4) Ma'daniy landshaftlar [2].

Inson tomonidan jamiyat manfaatlarini ko'zlagan va ilmiy asoslangan holda oqilona o'zgartirilgan landshaftlarni agrolandshaftlarga misol qilish mumkin. Masalan sifatli ishlov berilayotgan bog'lar, paxtazorlar, plantatsiyalar va h.k. Anropogen o'zgarishlarning bu tahlitda rivojlanishi global miqyosda olib borilishi iqlim o'zgarishlariga sabab bo'luvchi faktorlardan biri hisoblanadi [1]. Qizig'i shundaki iqlimiy o'zgarishlar boshlanishida antropogen "ehtiyoj" – qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlari, sanoat hamda boshqa omillar sababli boshlanadi, ta'sir ko'lamining kuchi esa yana o'ziga qaytadi. Bu huddi qisqa vaqtgina foydalanib olish, ammo uzoq vaqtga jabrini totishga o'xshash holatdir. Jamiyat ehtiyoji uchun kerakli jamiki resurslardan foydalanishi kerak, biroq tartibli va oqilona yo'lga qo'yilsa yaxshi. Iqlim o'zgarishlari Respublikamiz hududida ham uchramoqda. Masalan: Orol dengizi qurishi hisobiga paydo bo'lgan ekologik vaziyat, O'zbekiston janubida xarakterli bo'lgan chang to'zonli kunlarning poytaxtimiz Toshkent hududida ham sodir bo'la boshlagani va b.

Antropogen landshaftlar 2 sinfga bo'linadi: 1. Tekislik landshaftlari; 2. Tog' landshaftlari; Mazkur landshaftlar tarkibi, o'zini-o'zi boshqarish darajasi bo'yicha bir-biridan farqlanishi sababli ular dala-bog' (aralash) va o'tloqi-yaylov sinfchalariga bo'linadi. Sinfchalar mintaqa kenglik tiplariga ajratiladi [9]. Agrolandshaftning dala sinfchasi yerni haydash, o'g'it solish, ekinlarni yetishtirish natijasida shakllanadi. Landshaftning o'tloqi-yaylov sinfchasi – yer yuzasining barcha landshaft iqlim mintaqalarida mavjud. Uning tarkibi, o'zgarishi mazkur maydonlardan yaylov sifatida mol boqish darajasiga bog'liq. Agrolandshaftning bog' va bog'-dala sinfchasi – ma'daniy o'rmon majmuasiga o'xshash bo'lib, qayta tiklanish darajasi nisbatan past bo'ladi. Bog'lar ta'sirida landshaftda antropogen o'zgarishlar sodir bo'ladi [3,4,8]. Global iqlim o'zgarishlarining kuchi birinchi galda kishilik sohalaridan qishloq xo'jaligiga ta'siri katta hisoblanadi. Qishloq xo'jaligining har bir tarmog'ida iqlim bilan hisoblashishga majburdir. Har bir ekin o'zining sovuqqa, suvsizlikka, jazirama issiqlikka chidamlilik koeffisienti bilan biogeografik xarakter ko'rsatadi. Bu esa iqlim komponentining barcha o'zgaruvchan injiqlik tomonlarini o'rganishni taqozo etadi. Yurtimizda qishloq xo'jaligi qadimdan ananaviy uch yo'nalishda rivojlanib kelmoqda: obikor dehqonchilik, lalmikor dehqonchilik, chorvachilik kabi qadimiy shakllarga ega. Bu yo'nalishlar ichida tabiiy landshaftlarga eng ko'p ta'sir obikor dehqonchilikdan o'tadi hamda antropogen landshaftlarning o'ziga xos tipi shakllandi. Mazkur agrolandshaftlarni nomlashda O'zbekistonda L.N.Babushkin, N.A.Kogay 1964 yillarda - *sug'oriladigan yerlar landshaftlari* deb atagan bo'lsa,

N.A.Gvozdetskiy - *voha landshaftlari*, F.N.Chalidze - *irrigatsion landshaftlar* deb atashni taklif qildi [10,8]. Umumiy olib qaraganda ushbu qarashlarning negizi bir, faqat nomlanishini mohiyati har hil ko'rinishda, chunki barcha fikrlar agrolandshaftlar va uning xususiyatlari haqida boradi. Tabiiy landshaftlarning antropogen o'zgarishlari: antropogen o'zgarishlar o'zgarimas landshaft strukturasiidan tashqariga chiqmaydigan, ular o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tiklashga qoldirilgan, ya'ni ketma-ket tiklanadigan landshaftlardir. Antropogen landshaftlar o'z ichiga antropogen o'zgarishlar, landshaft tuzilmalarining o'zgarishiga olib keladigan hududlarni o'z ichiga oladi. Ular blokli tuzilishga ega bo'lib, ularni tashkil etuvchi quyi tizimlar tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqaruvdir. Ularning mavjudligi va faoliyatining eng muhim sharti antropogen boshqaruvdir. Boshqaruv to'xtatilgach, quyi tizimlar o'rtasidagi aloqalar buziladi va antropogen landshaftlar tabiiy-antropogen landshaftlarga qayta aylanadi. Qishloq xo'jalik sohasidagi asosiy maqsad bu albatta ko'p va mo'l hosil olish hisoblanadi. Quruqlik yuzining deyarli 70 % maydonida tabiiy landshaftlar insonning ta'siri ostida qisman yoki to'liq o'zgartirilgan [5].

Hozirgi davrda yer yuzida antropogen landshaftlar orasida eng katta ulushga ega maydonni tabiiy hamda qishloq xo'jalik bloklari, geosistemalar - qishloq xo'jalik landshaftlari ya'ni agrolandshaftlar tashkil etadi. Agrolandshaftlarning ilk ko'rinishlari sayyoramizda qariyb 16 ming yil ilgari insonning dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishi hisobiga hosil bo'la boshlagan. Bugungi kunda agrolandshaftlar quruqlikning 35 % maydonini egallagan [5,7]. Dehqonchilikda foydalaniladigan yerlar 20 mln. km² dan ortiq maydonni ishg'ol qiladi. Mazkur landshaftlar hududiy joylashishiga ko'ra zonal xususiyatga ega bo'lib, quruqlikning barcha landshaft zonalarida tabiiy landshaftlarni o'zgartirish evaziga paydo bo'ladi.

O'zbekiston hududida dastlabki agroiqlimiy rayonlashtirish L.N.Babushkin tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, global iqlim o'zgarishlari davriga kelib qishloq xo'jaligida ba'zi o'zgarishlarga to'qnash kelmoqda. Binobarin, agrolandshaft tuzilmasida hudud uyushuvidan va dehqonchilik tizimidan shakllangan uning elementlari ifodasini topishi lozim [2,9]. Agrolandshaftning antropogen landshaftlar singari xususiyatlar orqali tabiiy geosistemalardan farq qiladi va iqlim o'zgarishiga moslashadi. Iqlim o'zgarishi fonida qishloq xo'jaligi yuritilishi fokusi yangilanib turishi va global iqlim o'zgarishiga moslashuvchanlik kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Агрolandшафтные исследования: теория и практика» научные ведомости серия Естественные науки. 2011. № 15(110). Выпуск 16. 217-221.
2. Ш.С.Зокиров «Ландшафтшунослик асослари». Тошкент_2010. «Университет».
3. К.М.Воумирзаев «Geosistemalar nazariyasi». o'quv-uslubiy majmua. Namangan 2020.
4. Варшанина Т.П. //Интер Карто/Интер ГИС 11: Устойчивое развитие территорий: Теория ГИС и практический опыт. Ставропол, 2005. С 54.
5. S.I.Abdullayev, I.H.Muqimova, «Особенности и функции агrolandшафта» "Life Sciences and Agriculture" 23-2020.

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

6. Лопырев, М.И. «Основы агроландшафтного земледелия»/М.И.Лопырев. - Воронеж: изд – во Воронежского ун-та, 1995. 339 с.
7. Hasanov P, Xushboqova M. “Surxon davlat qo’riqxonasi rekreatsion turistik obyekt sifatida” "Экономика и социум" №6 (97) 2022.
8. P.A.Hasanov “Tabiiy landshaftlarning antropogen modifikasiyalanishi va agrolandshaftlar o’rganilish tarixi” "Экономика и социум" №12(115) 2023 www.iupr.ru
9. Yarashev K.S., Eshkuvvatov B.B. Scientific and Practical Measures of Analysis of Plains and Landscapes // Journal Natural and Science. Volume 18, Number 3. USA. March 25, 2020. –p. 60.
10. Ярашев Қ.С., Эшқувватов Б.Б. Тоғолди текисликлар ва ёйилма ландшафтларни қишлоқ хўжалик мақсадларида баҳолаш масалалари // Ўзбекистонда туризм ва рекреацияни ривожлантиришнинг географик муаммолари ва имкониятлари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. 19 май 2021 йил. –Қарши, 2021. –Б.20-22.